

Aksiyani o'tkazish qoidalarini «Ilovada foizsiz pul o'tkazmalari»

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Aksiyani o'tkazish qoidalarini (keyingi o'rinlarda — «Qoidalar») Aksiyani o'tkazish shartlari, tartibi va muddatini, Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega shaxslar doirasini belgilaydi hamda Aksiya o'tkaziladigan davrda tegishli moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishning muhim shartlari bo'yicha Bankning ommaviy ofertasi hisoblanadi.

1.2. «Ilovada foizsiz pul o'tkazmalari» aksiyasining (keyingi o'rinlarda — «Aksiya») tashkilotchisi «Ipoteka-Bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki (keyingi o'rinlarda — «Bank» / «Tashkilotchi») hisoblanadi. Bank o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021-yil 25-dekabrda berilgan 74-son litsenziyaga muvofiq amalga oshiradi. Manzil: 100000, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 30.

1.3. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida mahalliy vaqt bo'yicha 2026-yil 14-sentabr soat 00:00 dan 2026-yil 31-oktabr soat 23:59 gacha (shu jumladan) o'tkaziladi (keyingi o'rinlarda — «Aksiya davri»), agar Bank tomonidan mazkur Qoidalarining 6-bo'limida nazarda tutilgan tartibda Aksiyani uzaytirish, to'xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish to'g'risida qaror qabul qilinmasa.

1.4. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriydir. Aksiyada nazarda tutilgan shartlardan foydalanish uchun operatsiyani amalga oshirishdan oldin mazkur Qoidalar bilan tanishish majburiy hisoblanadi.

1.5. Aksiya Mijozlarning yangi ro'yxatdan o'tishlari sonini oshirish va ularni Ipoteka Mobile mobil bank ilovasidan foydalanishga rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladi.

1.6. Ishtirokchining mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan Aksiyada ishtirok etish shartlarini bajarishi ushbu ommaviy ofertaning to'liq va so'zsiz aksepti hisoblanadi hamda mazkur Qoidalariga roziligini anglatadi.

2. Atamalar va ta'riflar

2.1. «Bank kartasi» (Ipoteka-Bank) — Bank tomonidan emissiya qilingan hamda Bank bilan tuzilgan Shartnoma va tegishli Oferta shartlariga muvofiq jismoniy shaxs — Bank Mijoziga tegishli bo'lgan to'lov kartasi.

2.2. «Bank ichidagi pul o'tkazmasi» — Bank kartasidan boshqa Bank kartasiga pul mablag'larini o'tkazish.

2.3. «Banklararo pul o'tkazmasi» — Bank kartasidan O'zbekiston Respublikasining boshqa rezident banki tomonidan emissiya qilingan kartaga pul mablag'larini o'tkazish.

2.4. «Aksiya limiti» — Bank tomonidan belgilangan operatsiyalar summasining (jami va/yoki operatsiya turlari bo'yicha) eng yuqori miqdori bo'lib, uning doirasida Aksiya shartlari qo'llaniladi. Limitning aniq miqdori mazkur Qoidalarining 4-bandida ko'rsatilgan.

2.5. «Hisobot davri» — agar mazkur Qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, Aksiya limitini qo'llash maqsadida Mijoz operatsiyalarining jami summasi hisoblanadigan kalendar oy.

2.6. Mobil ilova — App Store va Play Market do'konlarida «IPOTEKA MOBILE» nomi bilan mavjud bo'lgan, Bank tomonidan ishlab chiqilgan va taqdim etiladigan dasturiy ta'minot. U mobil qurilmalarga o'rnatish va ulardan foydalanish, jismoniy shaxs bo'lgan mijozlarga bank xizmatlari, funksiyalar va/yoki axborotdan foydalanish imkonini berish uchun mo'ljallangan.

3. Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega shaxslar doirasi

3.1. Aksiya davrida amaldagi Bank kartasining egasi bo'lgan va mazkur Qoidalar shartlariga muvofiq keladigan har qanday muomalaga layoqatli jismoniy shaxs Aksiya ishtirokchisi bo'lishi mumkin (keyingi o'rinlarda — «Ishtirokchi» yoki «Mijoz»).

3.2. Agar Tashkilotchi tomonidan alohida boshqacha tartib belgilanmasa, Aksiyada ishtirok etish uchun mazkur Qoidalarda belgilangan shartlarni bajarish kifoya.

4. Aksiya o'tkazish shartlari va tartibi

4.1. Aksiya davrida Bank kartalarining egalari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha komissiyani qo'llashning quyidagi shartlari belgilanadi:

4.1.1. Bank ichidagi pul o'tkazmalari: Bank kartasidan boshqa Bank kartasiga pul mablag'larini o'tkazish uchun komissiya bir Mijozga bir Hisobot davri — kalendar oy uchun 10 million so'm miqdorida belgilangan Aksiya limiti doirasida operatsiya summasining 0% (nol foizi) miqdorida belgilanadi;

4.1.2. Banklararo pul o'tkazmasi: Bank kartasidan boshqa bank kartasiga pul mablag'larini o'tkazish uchun komissiya, bir Mijozga bir Hisobot davrida bitta operatsiya summasi va/yoki operatsiyalarning jami summasi 10 000 000 (o'n million) so'mdan (Aksiya limitidan) oshmagan taqdirda, operatsiya summasining 0% (nol foizi) miqdorida belgilanadi.

4.1.3. Mijoz mazkur Qoidalarining 4.1.1 va 4.1.2-kichik bandlarida ko'rsatilgan operatsiyalar bo'yicha jami 10 000 000 (o'n million) so'm miqdoridagi chegaradan Hisobot davri davomida oshgan taqdirda, oshgan summaga tegishli operatsiya summasining (chegaradan oshgan operatsiya qismining) 0,75% (nol butun yuzdan yetmish besh foizi) miqdorida komissiya qo'llaniladi;

4.1.4. AQSh dollaridagi konvertatsiya/qayta hisoblash bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha: operatsiya amalga oshirilgan sanadagi Markaziy bankning rasmiy kursiga nisbatan Bankning mobil ilovasida 0,1% (nol butun o'ndan bir foiz) miqdorida spred belgilanadi.

4.2. Mazkur Qoidalar 4.1-bandining kichik bandlarida ko'rsatilgan limitlar har bir operatsiya turi (Bank ichidagi va Banklararo pul o'tkazmalari) bo'yicha alohida qo'llaniladi.

4.3. Aksiya shartlari faqat Mijoz tomonidan Bankning mobil ilovasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarga tatbiq etiladi.

4.4. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan imtiyozli shartlar faqat Tashkilotchining bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma (keyingi o'rinlarda — «Shartnoma») tuzgan hamda mobil ilovaning eng so'nggi versiyasidan foydalanayotgan Mijozlariga tatbiq etiladi.

5. Axborot berish tartibi

5.1. Aksiya haqidagi ma'lumot, mazkur Qoidalar, shuningdek Aksiya o'zgartirish, to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning ipotekabank.uz rasmiy veb-saytida, Bankning mobil ilovasida, shuningdek Tashkilotchining ixtiyoriga ko'ra boshqa usullarda joylashtirish orqali Mijozlarga yetkaziladi.

5.2. Tashkilotchi mijozlarga Aksiya haqida push-bildirishnomalar, SMS-xabarlar, Tashkilotchining rasmiy kanallaridagi e'lonlar va boshqa aloqa kanallari orqali qo'shimcha ravishda axborot berishga haqli — bunda amaldagi qonunchilik, tuzilgan Shartnoma hamda Mijozlar bilan tuzilgan Oferta shartlariga rioya qilinadi.

5.3. Mazkur Qoidalarining amaldagi tahriri Aksiya o'tkaziladigan butun davr mobaynida ochiq foydalanish uchun joylashtiriladi.

6. Aksiya o'zgartirish va muddatidan oldin tugatish

6.1. Bank amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda, Bankning rasmiy saytida va/yoki mobil ilovasida hamda boshqa masofaviy aloqa kanallari orqali tegishli bildirishnomani joylashtirib, mazkur Qoidalarni (shu jumladan Aksiya limiti miqdorini, chegara qiymatini va komissiya miqdorini) bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki to'ldirish yoxud Aksiya tugatish yoki to'xtatib turishga haqli.

6.2. Aksiyaga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki uning tugatilishi (to'xtatib turilishi), agar Tashkilotchining tegishli bildirishnomasida va amaldagi qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

6.2. Mijoz tomonidan o'zgartirishlar kuchga kirguniga qadar yoki Aksiya muddatidan oldin tugatiladigan sanagacha amalga oshirilgan operatsiyalarga ular amalga oshirilgan paytda amalda bo'lgan shartlar tatbiq etiladi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Qoidalar va Aksiyada ishtirok etish munosabati bilan yuzaga keladigan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

7.2. Mazkur Qoidalarda tartibga solinmagan masalalar Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan Shartnomalar shartlari, shuningdek Bankning amaldagi tariflari bilan tartibga solinadi. Boshqa barcha hollarda Tashkilotchi va Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

7.3. Mazkur Qoidalarining ayrim qoidalari haqiqiy emas deb topilishi Qoidalarining qolgan qoidalari haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

8. Tashkilotchining rekvizitlari

To'liq nomi: «Ipoteka bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka banki

Qisqartirilgan nomi: «Ipoteka bank» ATIB

Yuridik manzili: 100000, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 30

STIR: 202858483

MFO: 00937

Rasmiy sayt: ipotekabank.uz

Kontakt-markaz: 1233; +99878 150 11 22

Bog'lanish uchun elektron pochta: info@ipotekabank.uz

Mobil ilova: yangi Ipoteka Mobile mobil ilovasi